



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Республика Шахарсозлик экспертизаси

100011, Toshkent shahri, Abay ko'chasi, 6-uy, Tel. 244-04-85, E-mail:davexpertiza@exat.uz,
devexpertiza@umail.uz www.mc.uz

Holati: Ijobiy

Direktor: INOYATOV MIRABBOS MIRKOMILOVICH

Sana:04-02-2022 yil



Yig'ma ekspert xulosasi № 31581

Obyekt nomi ««M-39b «Toshkent halqa yo'li» 41-43 km qismi (Ohangaron yo'li) ni mukammal ta'mirlash» ishchi loyihasi»

Buyurtmachi - «Toshkent shahri mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati»

DUK

Bosh loyihachi - «Yo'l-loyiha byurosi» MChJ

Litsenziya 2020 yil 20 iyuldagi №AL-001288-sonli

Moliyalashtirish manbai - Toshkent shahar mahalliy byudjeti qo'shimcha manbalari hisobidan

Bosh pudratchi - «Yangiyo'l qurilish» UK

Qurilish turi mukammal ta'mirlash

Murojaat raqami: № 31058

1. Loyihalash uchun asos

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 17 martdagi qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 11 apreldagi 05/1-2471-sonli bayoni.
- 1.2. Toshkent shahar Xokimining 2021 yil 16 noyabrdagi 470-14-0-Q/21-sonli qarori.
- 1.3. Belgilangan tartibda kelishilgan va 2021 yil buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyihalash topshirig'i.
- 1.4. Loyiha-smeta ishlarini bajarish uchun 2021 yilda 22 dekabrda tuzilgan 1362-sonli shartnoma.
- 1.5. 2021 yilda «Yo'l-loyiha byurosi» MChJ tomonidan bajarilgan qurilish maydonchasining muhandislik-geologik sharoitlari to'g'risidagi xulosa.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

- 2.1. Loyiha tarkibiy bayoniga ko'ra ishchi loyihaning elektron yo'nalishda taqdim qilingan loyiha-smeta hujjatlari.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi avtomobil yo'llari qo'mitasi "Yo'l loyiha ekspertiza" UK tomonidan 20.12.2021 yilda berilgan 101/1r-2021-T-sonli ekspert xulosasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Texnik qismi

Ta'mirlanayotgan yo'lining uzunligi – 0.239km.

Qatnov qismining kengligi – 7.0m.

Mavjud bordyurlarni demontaj qilish – 44 dona.

Diametri 325mm bo'lgan metall quvurlar o'rnatish – 9.0m.

Suv qabul qiluvchi quduq – 1 dona.

Mahalliy o'tish yo'li qurish

- mayda donali qaynoq asfaltbeton qoplamasi V tipdagi 1 markali – 6sm;

- yiriq donali asfaltbeton qoplamasi V tipdagi 1 markali – 6sm;

- qum-shag'al aralashmasiga chaqiq tosh qo'shilgan beton asos uchun – 18sm;

- qum-shag'al aralashmasidan ikki qavat asos uchun – 20sm.

Yoritish tizimi

Yoritish chiroqlarini h-7.0m lik tayanchlarga o'rnatiladi, Tayanchlar soni – 30 ta: 1 donali (roshkovyy) – 27 ta, 2 donali (roshkovyy) – 3 ta.

Tayanchlar uchun poydevor – monolit temir-betondan iborat.

Yoritish tizimi uchun kuchlanish shit – 1 dona.

Kabellar uzunligi – 1271.0m.

Kabellar yotqizish uchun D-40mm PVX quvurlar – 1011.0m va h.k.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Ishchi loyiha quyidagi tashkilotlar tomonidan 2021 yilda ko'rib chiqilgan va kelishilgan:

- Toshkent shahar IIBB yo'l xarakati havfsizligi boshqarmasi;
- "Toshkentboshplan" LITI DUK;
- "Toshkent halqa yo'lidan foydalanish boshqarmasi»UK;
- «Toshkent shahri mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati» DUK;
- Toshkent shahar hokimiyati;
- Toshkent shahar bosh arxitektori.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Ishchi loyiha ekspertiza ko'rigiga buyurtmachining loyihaviy yechimlariga izohlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izohlariga muvofiq ishchi loyihasiga asosiy tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi.

6.3. Ekspert tekshiruvi natijalariga ko'ra QQS bilan va buyurtmachining boshqa harajatlarisiz 3 432 118.916 ming so'm miqdorida topshirilgan ishlar qiymati 3 233 732.677 ming so'mga kamaytirilib, 3 193 683.978 ming so'm qilib belgilandi, shu jumladan:

Asbob-uskunalar	29 702.932 ming so'm.
Qurilish-montaj ishlari	2 747 413.571 ming so'm.
Qo'shimcha qiymat solig'i	416 567.475 ming so'm.

Kamayish qurilish mashinalari va mexanizmlarining, asosiy qurilish materiallarining mashina soatlari narxini sozlash hisobiga amalga oshirildi.

6.4. Qurilishning yakuniy qiymati buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish oxirida, nazorat o'lchovlari natijalariga ko'ra belgilanadi.

6.5. Buyurtmachiga tavsiya etiladi:

- ShNK 4.01.16-09 6-bobidagi "Qurilishning bahosini shartnomaviy joriy narxlarda aniqlash qoidalari" asosida qurilish materiallari (buyumlar, konstruksiyalar) va uskunalarning ishlab chiqaruvchilarning narxlarini o'z ichiga olgan hududiy bozorda haqiqatda shakllangan narxlari, shuningdek bevosita ishlab chiqaruvchilardan (yetkazib beruvchi), qurilish materiallari birja va yarmarkalarining byulletenlari, qurilish materiallari va uskunalari yetkazib beruvchi tashkilotlarning narxlaridan olinishi;

- loyihaviy hujjatlarni tasdiqlashdan oldin belgilangan tartibda barcha manfaatdor vakolatli organlar bilan kelishish.

6.6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 7-ilovasiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

7.1. «M-39b «Toshkent halqa yo'li» 41-43 km qismi (Ohangaron yo'li) ni mukammal ta'mirlash» ishchi loyihasi ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, kelishishga tavsiya etiladi.

7.2. Ushbu yig'ma ekspert xulosasi taqdim qilinishi bilan 20.12.2021 yilda berilgan 101/1r-2021-T-sonli ekspert xulosasi bekor qilinadi.

Ekspert mutaxassis: Sh. Mirxodjaev, Abdullaev O.

Bosh mutaxassis: AVAZOV XASHIMJON TURABAEVICH